

DOI: 10.5281/zenodo.15714046

Link: <https://zenodo.org/records/15714046>

## FARG`ONA VILOYATIDA MEVA-SABZAVOTCHILIK SALOHIYATI VA USHBU SOHADA KLASTERLARNING RIVOJLANISHI

Mannopova Muazzam Sultonbekovna

Farg`ona davlat universiteti,

Jahon va mintaqasi iqtisodiyoti kafedrasiga katta o'qituvchisi

e-mail: [muazzam.mannopova@gmail.com](mailto:muazzam.mannopova@gmail.com),

+998905349413

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada O'zbekistonda meva sabzavotchilik sohasininig rivojlanishi, meva-sabzavot mahsulotlari ishlab chiqarishining rivojlanish tendensiyalari yoritilgan. Shu bilan birga Farg`ona viloyati qishloq ho'jaligida meva-sabzavot yetishtirish salohiyati va mamlakatimiz meva-sabzavotchilik sohasida tutgan o'rni jadvallar asosida tahlil qilingan. Shunindek, meva-sabzavotcilik sohasida klaster tizimining afzalliklari, klasterlarini rivojlantirishning o'ziga xos xususiyatlari, ularni takomillashtirish yo'lidagi belgilangan asosiy vazifalar va amalga oshirilgan ishlar keng yoritib berilgan.

**Kalit so'zlar.** Meva-sabzavotchilik, klaster, qishloq xo'jaligi, bozor, iste'molchi, qayta ishslash, ishlab chiqarish, agrologistika.

**Kirish.** Bugungi kunda O'zbekistonda qishloq xo'jaligi tarmog'ining iqtisodiy rivojlanishi tez sur'atlarda amalga oshayotganligi ushbu sohaning mamlakat iqtisodiyotida, jumladan, yalpi ichki mahsulotdagi o'rni yuqori ekanligi bilan izohlanadi. Shu jumladan meva-sabzavotchilik sohasi ham O'zbekiston uchun jahon agrar va qishloq xo'jaligi bozorlariga integratsiyalashuv va valyuta tushumini ta'minlab beruvchi tarmoqlardan biri hisoblanadi. O'zbekistonda yiliga 40 million tonna meva-sabzavot yetishtiriladi. Lekin ularni sanoat usulida qayta ishslash darajasi qariyb 25 foiz bo'lib, shundan 12 foizi eksport qilinmoqda. Infratuzilma yetarli emasligi tufayli yig'ishtirish va saqlash jarayonida 30 foiz mahsulotlar yo'qotilmoqda<sup>54</sup>. Mavjud vaziyat sohada amalga oshirilayotgan imkoniyatlardan oqilona foydalanish, mahsulotlarni chuqr qayta ishslash, oziq-ovqat sanoatini yanada rivojlantirish va eksport hajmini oshirishni taqozo etadi. Respublika hukumati tomonidan qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yig'ish, tashish, saqlash, qayta ishslash, qadoqlash va eksport qilish jarayonlarini qamrab oladigan zamonaviy agrologistika markazlarini ko'paytirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Qolaversa, O'zbekistonda agrar sohani isloh qilish, unga bozor mexanizmlari va zamonaviy texnologiyalarni joriy etish borasida izchil chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Xususan, klaster usuli yo'lga qo'yilishi asosiy ahamiyatga ega bo'lib, bu esa bozor tamoyillariga o'tishda, sohada davlat aralashuvini keskin kamaytirish, reja ortidan quvish va majburiy mehnat holatlariga butunlay chek qo'yishda muhim omil bo'lmoqda. Shu jihatdan, mamlakatimiz prezidenti Shavkat Mirziyoyev: "Klaster va manfaatdorlik — O'zbekiston qishloq xo'jaligining kelajagi", degani bejiz emas. Shu bilan birga, davlatimiz rahbari o'z ma'rzasida: "...qishloq xo'jaligi tarmog'iga agroklaster tizimining joriy etilgani qisqa fursatda o'zining ijobjiy samarasini berayotgani" ni ham e'tirof etib o'tgan edi. Shu bois davlatimida qishloq xo'jaligida klaster tizimini

<sup>54</sup> O'zbekiston respublikasi prezidenti Sh.Mirziyoyev qishloq xo'jaligi mahsulotlarini chuqr qayta ishslash va oziq-ovqat tovarlarini sifatini oshirishga bag'ishlangan yig'ilish ma'rzasidan

samarali yo‘lga qo‘yishga astoydil xarakat qilinmoqda. Amaliyatga ko‘ra, tashkilotning klaster shakli bilan o‘zaro hamkorlikning integratsiya shakllari ishlab chiqarilayotgan mahsulotning raqobatbardoshlik darajasini oshirish hisobiga korxonalar, tarmoqlar va umuman davlat iqtisodiyotining ilgarilab rivojlanish jarayonini ta’minlaydi.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Xorijlik olimlar turli xil klaster modellari mavjudligini ta’kidlaydilar. Jalon klaster modellarining umumiyligini xususiyati loyihalarni qabul qilish va mahsulot ishlab chiqarish bosqichidagi raqobat mavjudligi va ularni amalga oshirish bosqichida hamkorlikdan iborat. Shu bilan birga, bu yerda raqobat to‘liq mantiqiy asosga ega, chunki bu klasterda ishtirok etish uchun kompaniya ma’lum sifat standartlariga javob beruvchi mahsulot ishlab chiqarishi kerakligini anglatadi.

Yevropa modeli

- Turli xil mahsulotlarni ishlab chiqaradigan va ushbu hududdan tashqarida rag‘obatlashadigan kompaniyalarning muayyan hududida konsentratsiya qilish maxsus boshqaruvi strategiyasini amalga oshiradi

Shimoliy Amerika modeli

- kompaniyalarning geografik konsentratsiyasini o‘z ichiga oladi, hududiy prinsiplik bo‘yicha iqtisodiy munosabatlarni amalga oshiradi

Osiyo modeli

- Davlat iqtisodiy siyosati doirasida tashkil etilgan ayrim hududlarda korxona va tashkilotlarning vertikal integratsiyasi bilan ajralib turadi

Yaponiya modeli

- Korxona rahbari atrofida to‘plangan kichik kompaniya va tashkilotlar to‘plami bilan tavsiflanadi
- Bunday kichik kompaniyalar bosh kompaniya uchun yarimtayyor mahsulotlar va butlovchi qismalarni yetkazib berish imkoniyati uchun narx va sifat jihatidan o‘zaro raqobatlashadi

## 1-rasm. Klasterlarning asosiy jahon modellari<sup>55</sup>

Rossiyalik tadqiqotchi T.V. Uskovaning fikricha, klaster – ma’lum bir mahsulotni ishlab chiqarishdan manfaatdor bo‘lgan, o‘zaro yaqin va samarali aloqada bo‘lish imkonini beruvchi o‘zaro yaqin joylashgan kompaniyalar birlashmasi. Bunday o‘zaro aloqa ularning firmalar o‘rtasidagi, shuningdek, shaxslar o‘rtasidagi munosabatlarni hisobga olgan holda tuzilmaning oddiy tarmoq shaklidan yanada murakkab shakllariga aylanishiga olib keladi. Ular shuningdek, kengayish tendensiyasiga ega va xatto iqtisodiyotning turdosh tarmoqlariga o‘tkazilishi mumkin.

Ye.V. Volkodavova klasterning asosiy afzalligi sifatida klaster tarkibiga kiruvchi korxonalar yuridik mustaqil bo‘lgan holda ishlab chiqarish va boshqaruvi texnologiyalari, axborot va bilimlardan foydalanish imkoniyatini beradi, bu muvaffaqiyatning asosi hisoblanadi va sinergetik muvaffaqiyatga erishish imkonini beradi.

T.I. Maksimova klaster aglomerasiyalari tufayli turli xildagi – ishlab chiqarish, tashkiliy va ijtimoiy yo‘naltirilgan infratuzilmalar sa‘y-harakatlarini birlashtirish orqali yuqori darajadagi ekologik, axborot va umumiyligini iqtisodiy barqarorlikka erishish mumkin, deb hisoblaydi.

<sup>55</sup> Muallif tomonidan tizimlashtirilgan.

Rossiyalik tadqiqotchi L.I. Pronyayeva, O.A. Fedotenkova va A.V. Pavlovalar klasterli birlashmalarini joriy etish imkoniyatlarini yuqori baholab, ularning tashkil qilinishi va faoliyati bevosita ishtirokchilar, shuningdek, klaster joylashgan hududlar uchun ishlab chiqarish, ijtimoiy, eksport va umumiy iqtisodiy salohiyatni rivojlantirish uchun qo'shimcha imkoniyatlar yuzaga kelishiga sabab bo'lishini ta'kidlab o'tadi. Ular klaster tashabbuslari doimo innovatsiyalarni joriy etish bilan bog'liq bo'lib, biznes tuzilmalari, davlatning ta'lim va ilmiy muassasalarini majburiy jalb etgan holda o'zaro hamkorligi asosida shakllanishi kerakligini ta'kidlaydilar.

Mamlakatimizdagi olimlarning fikricha, "klasterlar fermer xo'jaliklari tomonidan paxta xomashyosini yetishtirish va uni yanada chuqur qayta ishlash uchun to'qimachilik korxonasiga yetkazib berish bo'yicha to'g'ridan-to'g'ri shartnomalar tuzish asosida tashkil etilgan to'qimachilik korxonalari va fermer xo'jaliklarining kooperatsiya aloqalarini yo'lga qo'yish vazifasini muvaffaqiyatli hal etib, hududlarni ham, butun mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishga muhim hissa qo'shadi".

B.Dusmatov tadqiqotlarida agrosanoat ishlab chiqarishida xo'jalik yurituvchi va ularga innovasion xizmat ko'rsatuvchi sub'yektlar o'rtasidagi iqtisodiy munosabatlarni klaster tizimi doirasida samarali amalga oshirishga yo'naltirilgan texnologiyalar transferti markazlarini tashkil qilish ilmiy asoslangan.

Mullabayev B. tadqiqotlarida klasterlarni shakllantirish uchun avvalo, klaster tashabbuslarini amalga oshirish muhiti, uning tuzilmaviy tarkibi va fundamental metodologik asoslari yaratilishi lozimligi keltirib o'tilgan.

Abdulloyev A. tomonidan ixtisoslashgan paxtachilik klasterlaridagi xo'jaliklar faoliyatini kooperatsiya munosabatlari asosida muvofiqlashtirish va o'zaro iqtisodiy hamkorligini shakllantirishning namunaviy tuzilmasi ishlab chiqilgan.

T.Nurimbetov tomonidan Qoraqalpog'iston Respublikasida chorvachilik mahsulotlarini yetishtirishga ixtisoslashgan klasterli faoliyatni autsorsing munosabatlarni joriy etish asosida takomillashtirilgan.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Iqtisodiyot soha va tarmoqlarini, xususan mevasabzavotchilikda klaster tizimi asosida rivojlantirishning iqtisodiyot raqobatbardoshligiga ta'sirini o'rghanishda iqtisodiy jarayonlarni kuzatish, ma'lumotlar toplash, toplangan ma'lumotlarni tahlil qilish va sintezlash kabi iqtisodiy tadqiqot usullaridan foydalanildi.

### **Tahlillar va natijalar.**

Qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish va qayta ishlash hajmini oshirishda agroklasterlar faoliyatini takomillashtirish masalalari muhim ahamiyat kasb etadi va ushbu masalani doimiy hal etish dolzarbligicha qolmoqda. Shu bilan birga, klasterlar innovatsion, raqobatbardosh va samarali iqtisodiyotning shakllantirilishi zamonaviy iqtisodiy vositachisi, yaratilgan tayyor mahsulotlarning iste'molchigacha etib borishini, ishlab chiqarish kuchlarining yuksalishini, ishlab chiqarish hajmining o'sishini, sog'lom ishlab chiqarish munosabatlari hamda samaradorlikni ta'minlovchidir. Qolaversa, soha va sohalararo faoliyatni o'zida mujassamlashtirgan klasterlardagi tashabbuskor mutaxassislarining tafakkuri va boshqaruv mexanizmlarining izchillik bilan olib borilishi bilan bog'liqdir. Klasterlarda sohalarning ta'lim, fan va ishlab chiqarish integratsiyalashuvi bilan bir qatorda, soha

kichik korxonalarining manfaatli kooperatsiyasi, sohalararo ichki va tashqi integratsiya elementlari ham yuksalishiga zamin yaratadi. Mamlakatimizda meva-sabzavotchilik sohasini samarali tashkil qilish bevosita klaterlar tizimi va uning o`zaro aloqador korxonalarinng samarali faoliyatiga bog`liqdir. Jumladan, Farg`ona viloyatidagi meva-sabzavotchilik sohasining faoliyatini quyidagi tahlillar orqali o`rganish maqsadga muvofiq bo`ladi.

Farg`ona viloyatida qishloq xo`jaligi mahsulotlari yetishtirish va qayta ishslash keng rivojlangan hududlardan biri hisoblanadi. Farg`ona viloyati hududlarining tuproq-iqlim sharoitlarini hisobga olgan holda bog`dorchilik, uzumchilik, sabzavot-polizchilik, kartoshkachilik va boshqa oziq-ovqat mahsulotlarini yetishtirishga ixtisoslashgan.

Farg`ona viloyatida respublikadagi sabzavot yetishtiriladigan ekin maydonlarining 2020 yilda 9,3 foizi to`g`ri kelgan va jami respublikada yetishtirilgan hosilning 7,3 foizi yetishtirilgan. Viloyatda 2022 yilga kelib, sabzavotlar yetishtiriladigan ekin maydonlarining 11 foizi to`g`ri kelib, respublikada jami yetishtirilgan hosilning 10,8 foizi to`g`ri kelgan. Farg`ona viloyati sabzavotlar ekin maydonlari bo`yicha respublikada 3-yirik hudud hisoblanib, 2024 yilda hosil yetishtirish bo`yicha ham 3-o`rindagi viloyat sifatida qayd etilgan (1-jadval).

### 1-jadval

#### O`zbekistonda sabzavot yetishtirish<sup>56</sup>

Hududlar	2019 y.				2024 y.					Eki n maydon i bo`yicha o`rn i	yalpi hosil bo`yicha o`rn i
	ekin maydo n, ga	yalpi hosil, tonna	ekin maydo n, %	yalpi hosil, %	ekin maydo n, ga	yalpi hosil, tonna	ekin mayd on, %	yalp i hosil, %			
O`zbekiston Respublikasi	172976	6262439	100	100	224207	10459483	100,0	100,0			
Qoraqalpog`iston Respublikasi viloyatlar:	6763	134245	3,9	2,1	16489	287743	7,4	2,8	7	13	
Andijon	14481	861675	8,4	13,8	21789	1611020	9,7	15,4	4	2	
Buxoro	8253	354798	4,8	5,7	19392	768617	8,6	7,3	5	7	
Jizzax	8642	230816	5,0	3,7	11831	425252	5,3	4,1	11	10	
Qashqadaryo	14429	321472	8,3	5,1	14699	495547	6,6	4,7	5	9	
Navoiy	3268	149054	1,9	2,4	5099	291086	2,3	2,8	13	12	
Namangan	13010	439425	7,5	7,0	13810	831730	6,2	8,0	9	6	
Samarqand	25714	1049743	14,9	16,8	34047	1636313	15,2	15,6	1	1	
Surxondaryo	13192	486419	7,6	7,8	18341	1013532	8,2	9,7	6	5	
Sirdaryo	4303	182711	2,5	2,9	5742	306966	2,6	2,9	12	11	
Toshkent	31758	121504	18,4	19,4	24887	1066432	11,1	10,2	2	4	
Farg`ona	16965	459348	9,8	7,3	24561	1128546	11,0	10,8	3	3	
Xorazm	12198	377691	7,1	6,0	13442	596229	6,0	5,7	10	8	
Toshkent sh.					78	470	0,0	0,0	14	14	

<sup>56</sup> Davlat statistika qo`mitasi ma`lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlangan.

Farg'ona viloyatida respublikadagi meva va rezavorlar yetishtiriladigan ekin maydonlarning 2019 yilda 18,8 foizi to'g'ri kelgan va jami respublikada yetishtirilgan hosilning 15,3 foizi yetishtirilgan. Meva va rezavorlar yetishtiriluvchi ekin maydonlari bo'yicha viloyat yetakchilik qiladi. Viloyatda 2024 yilga kelib, meva va rezavorlar yetishtiriladigan ekin maydonlarining 15,5 foizi to'g'ri kelib, respublikada jami yetishtirilgan hosilning 12,7 foizi to'g'ri kelgan. Farg'ona viloyati meva va rezavorlar ekin maydonlari bo'yicha respublikada 1-yirik hudud hisoblanib, 2024 yilda hosil yetishtirish bo'yicha ham 2-o'rindagi viloyatdir (2-jadval).

## 2-jadval

### O'zbekistonda meva va sabzavotlar yetishtirish<sup>57</sup>

Hududlar	2019 y.				2024 y.					
	ekin maydon, ga	yalpi hosil, tonna	ekin maydon, %	yalpi hosil, %	ekin maydon, ga	yalpi hosil, tonna	ekin maydon, %	yalpi hosil, %	Ekin maydoni bo'yicha o'rni	yalpi hosil bo'yicha o'rni
O'zbekiston Respublikasi	235257	1676330	100	100	341113	2863983	100,0	100,0		
Qoraqalpog'iston Respublikasi	4661	24728	2,0	1,5	6005	57853	1,8	2,0	13	13
viloyatlar:										
Andijon	28685	358917	12,2	21,4	32861	666872	9,6	23,3	5	1
Buxoro	11057	150862	4,7	9,0	14664	304048	4,3	10,6	9	4
Jizzax	12061	56270	5,1	3,4	19518	88313	5,7	3,1	7	11
Qashqadaryo	14363	73436	6,1	4,4	19068	163197	5,6	5,7	8	7
Navoiy	5683	61314	2,4	3,7	10882	103376	3,2	3,6	11	10
Namangan	24949	126294	10,6	7,5	30808	283869	9,0	9,9	6	5
Samarqand	29322	231684	12,5	13,8	46766	345514	13,7	12,1	3	3
Surxondaryo	14418	92293	6,1	5,5	50600	164507	14,8	5,7	2	6
Sirdaryo	5127	19766	2,2	1,2	7247	40303	2,1	1,4	12	12
Toshkent	28692	108223	12,2	6,5	36028	129744	10,6	4,5	4	8
Farg'ona	44178	256411	18,8	15,3	52993	364308	15,5	12,7	1	2
Xorazm	12061	116132	5,1	6,9	13144	150803	3,9	5,3	10	9
Toshkent sh.				0	529	1276	0,2	0,0		

O'zbekiston Respublikasida 2019 yilda yetishtirilgan sabzavotlarni qayta ishslash darajasi 4,04 foizni tashkil etgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2024 yilga kelib, 6,14 foizni tashkil etgan, biroq Farg'ona viloyatida esa yetishtirilgan sabzavotlarni qayta ishslash salmog'i yillar davomida pasayish tendensiyasi kuzatilgan bo'lib, 2019 yilda 5,77 foizdan 2024 yilda 4,10 foizga pasaygan.

Farg'ona viloyatida yetishtirilgan mevalarning 2019 yilda 17,1 foizi viloyatning o'zida qayta ishlangan bo'lsa, 2024 yilga kelib, ko'rsatkich 18,5 foizni tashkil etgan. Respublika darajasiga nisbatan taqqoslanganda Farg'ona viloyatida mevalarni qayta ishslash, quritish va ulardan oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish bo'yicha keng tajriba to'plangan bo'lsa-da, respublika bilan taqqoslanganda deyarli teng pozisiyada(3-jadval).

<sup>57</sup> Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlangan.

## 3-jadval

**O‘zbekiston respublikasi va Farg‘ona viloyatida meva-sabzavotllarni yetishtirish va qayta ishlash darajasi<sup>58</sup>**

Hududlar	Sabzavotlar,t					
	2018 y	2019 y	2020 y	2022 y	2023 y	2024 y
O‘z.Res.da yetishtirildi	9390040	10184023	10219914	9760323	10215058	10459483
O‘z.Res.da qayta ishlandi	379682,40	420815,00	441093,90	654189,20	633200,40	641940,70
O‘z.Res.da qayta ishlash darajasi, %	4,04	4,13	4,32	6,70	6,20	6,14
Farg‘ona viloyatida yetishtirildi	783067	867150	874246	1008225	1090375	1128546
Farg‘ona viloyatida qayta ishlandi	45222,10	50048,60	36369,80	40597,40	48053,70	46270,40
Qayta ishlash darajasi, %	5,77	5,77	4,16	4,03	4,41	4,10
Mevalar,t						
O‘z.Res.da yetishtirildi	2467940	2612865	2614916	2706247	2752721	2863983
O‘z.Res.da qayta ishlandi	446052,20	497 974,40	522 068,00	513 079,80	483263,7	542837,9
O‘z.Res.da qayta ishlash darajasi, %	18,07	19,06	19,97	18,9	17,5	18,9
Farg‘ona viloyatida yetishtirildi	335379	336555	323567	324016,00	333906,00	364308,00
Farg‘ona viloyatida qayta ishlandi	57 435,0	60 408,9	69 553,9	61 100,6	64 809,6	67 397,1
Qayta ishlash darajasi, %	17,13	17,95	21,50	18,86	19,41	18,50

O‘zbekiston Respublikasida kartoshka yetishtirish hajmi 2018 yilda 1694,8 ming tonnani tashkil etgan bo‘lsa, 2024 yilda 3089,7 ming tonnani tashkil etgan, eng ko‘p iste’mol qilunuvchi asosiy sabzavot turi hisoblangan kortoshka yetishtirish hajmi qariyb 2 marta oshgan. Yetishtirilgan kartoshkaning 21 foizi ichki bozorda chakana savdoda sotilgan. Qolgan qismi ishlab chiqarish, eksport va davlat zaxiralariga olingan. Kartoshka yetishtirish va iste’moli o‘rtasidagi munosabatlar bo‘yicha qaralganda, mamlakat axolisining kartoshka iste’moli yetishtirishga nisbatan bir necha marta pastroq o‘sigan, sababi, 2018 yilda yetishtirilgan kartoshkaning 24 foizi aholi chakana savdoda sotilgan bo‘lsa, 2024 yilda bu ko‘rsatkich 21 foizni tashkil etgan. Aholi jon boshiga nisbatan hisoblanganda, 2018 yilda mamlakatda 60,5 kg dan kartoshka yetishtirilib, chakana savdo uchun 14,5 kg.mi yo‘naltirilgan bo‘lsa, 2024 yilda bu ko‘rsatkichlar mos ravishda 92,9 kg.ni va 20,33 kg.ni tashkil etgan.

E’tiborlisi, mamlakatda yetishtirilgan jami sabzavotlarning atigi 14,1 foizi chakana savdoda sotilgan. Aholi jon boshiga hisoblanganda esa yiliga o‘rtacha 282

<sup>58</sup> Davlat statistika qo’mitasi ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlangan.

kg.dan sabzavotlar yetishtirilgan bo‘lib, chakana savdoda 40 kg dan aholiga sotilgan. Meva va rezavorlar yetishtirish hajmi ham mamlakatda ichki iste’molga nisbatan bir necha marta yuqori hisoblanadi. Jumladan, myeva va rezavorlar yetishtirish 2018 yilda 1676,3 ming tonnani tashkil etib, 2024 yilda bu ko‘rsatkich 165 foizga oshib, 2752,7 ming tonnani tashkil etgan. Yetishtirilgan meva va rezavorlarning ichki bozorda sotilgan qismi 2018 yilda 33,1 foizini tashkil etgan bo‘lsa, 2024 yilda bu ko‘rsatkich 36,51 foizni tashkil etgan. Aholi jon boshiga yetishtirilgan meva va rezavorlar 82,7 kg.dan to‘g‘ri kelgan bo‘lsa, chakana savdoda 30,2 kg.dan to‘g‘ri kelgan. Yuqoridagi tahliliy ma’lumotlarda ko‘rsatilgan mahsulot etishtirish hajmining asosiy qismi meva-sabzavotchilik klasterlari faoliyati natijasidir.

Farg‘ona viloyatida hozirda 20 dan ziyod meva-sabzavotchilik klasterlari faoliyat ko‘rsatib kelmoqda. Viloyatdagи klasterlar asosan meva, sabzavot, uzum va dukkakli ekinlar yetishtirishga ixtisoslashgan. Mahsulotlarning katta qismi eksportga yo‘naltirilmoqda. **Faoliyat ko‘rsatayotgan** klasterlar fermer xo‘jaliklari bilan hamkorlik qilish, qayta ishslash, saqlash va eksportni yo‘lga qo‘yish, qishloq xo‘jaligida zamonaviy texnologiyalarni joriy etish, mehnat samaradorligini oshirish va yangi ish o‘rinlari yaratish kabi vazifalarini bajarib kelmoqda. Ushbu klasterlar faoliyatida eksport salohiyatining yuqoriligi, qayta ishslash quvvatlari rivojlanganligi, innovatsion texnologiyalar tatbiq etilganligi alohida ahamiyat kasb etadi. Lekin klasterlar faoliyati sohasi bilan bogliq bir qator muammolar ham mavjud bo‘lib, ushbu muammolar haligacha dolzarligicha qolmoqda. Ushbu muammolar qayta ishslash infratuzilmasi yetarli emasligi, eksport logistikasi murakkabligi, mini zavodlar vasovutgichli omborlar yetarli emasligi, fermerlar bilan ishslashda muvofiqlik yetishmasligi kabi muammolar ham uchramoqda.

**Xulosa.** Meva-sabzavot mahsulotlari bozorining o‘ziga xos xususiyati, bиринчи navbatda, sotuvchi va xaridorlar o‘rtasidagi munosabatlar va vositalarning o‘ziga xos xususiyatlari hisoblanib, ishlab chiqaruvchi tomonidan meva va sabzavot mahsulotlarini yetishtirish hajmini o‘z vaqtida oshirish yoki kamaytirishning iloji bo‘lmagan holatlarda ham meva-sabzavot iste’molini xaridor uzoq vaqt davomida saqlab turolmasligidir. Shu sababli, iste’molchi tomonidan ham, yetishtiruvchi tomonidan ham, ma’lum bir tizim va bozorning o‘ziga xos xususiyati sifatida tan olinishi kerak. Shunday qilib, har doim ham bozorning asosiy tarkibiy qismlari – talab va taklif narx tizimidan kelib chiqib, boshqa tomonning pozisiyasiga mos ravishda javob bera oladi.

Meva-sabzavot ishlab chiqaruvchilar va ular o‘rtasidagi biznes hamkorlik sotish, tovar, narxlar, saqlash, tashish va saqlash xizmati hamda aloqa strategiyalarini ishlab chiqish hamda amalga oshirish jarayonida tarqatish kanallari boshqaruv ishtirokchilarining murakkab o‘zaro ta’sirini ta’minlashga qaratilgan bo‘lib, ushbu jarayon ayniqla meva-sabzavotchilik sohasida alohida ahamiyatga ega.

Meva-sabzavot mahsulotlari savdosida boshqaruvni taqsimlash tizimi ishtirokchilar o‘rtasida iste’molchi uchun yuqori iste’mol qiymatini yaratishni ta’minlovchi noyob qiymat taklifini shakllantirish bo‘yicha o‘zaro ta’sir jarayoni,

Bugungi kunda sanoat klasterlarining muvaffaqiyatini ta'minlash, faoliyatni baholash uchun zarur va yetarli omillarni aniqlash butun klaster konsepsiyasining ustuvor yo'naliishlari qatoriga kiruvchi o'ta muhim metodologik vazifalardir.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Волкодавова Е.В., Жабин А.П. Методы оценки уровня реализации экспортного потенциала аэрокосмического кластера Самарского региона. // Вестник Самарского государственного экономического университета. 2014. № 8 (118). – С. 47-53.
2. Максимова Т.И. Формирование конкурентных преимуществ региональных экономических кластеров. Диссертация на соискание ученой степени кандидата экономических наук. – Волгоград, 2014.
3. Проняева Л. И., Федотенкова О. А., Павлова А. В. Кластерные инициативы как инструмент развития конкурентоспособной экономики. // Вестник ВГУ. Серия: Экономика и Управление. 2018. № 1. – С. 43-52.
4. Dusmatov B. Milliy iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida agrosanoat ishlab chiqarishida innovatsion infratuzilmani rivojlantirish. 08.00.04 - Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti. Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. Toshkent -2021 y.
5. Mannopova M.S. Qishloq xo'jaligida meva-sabzavotchilikni rivojlantirishning xalqaro tajribalari va unda klaster tizimining afzallikkleri. Ta'lim tizimida ijtimoiy gumanitar fanlar// -2024.-№4.
6. [www.stat.uz](http://www.stat.uz) - O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligining rasmiy veb sayti